

TARIX VA JAMIYAT

HISTORY AND SOCIETY
ИСТОРИЯ И ОБЩЕСТВО
общественный электронный
ЖУРНАЛ

JOURNAL
2022

№3

Bosh muharrir:
Pardaev A.H. JDPI, tarix fakulteti dekani, t.f.n. dosent.

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Aqchaev F.Sh. JDPI, tarix fakulteti, t.f.b.f.d. (PhD), dosent.

Mas’ul kotiblar:
Saidov J.O. JDPI, Tarix fakulteti o‘qituvchisi
Xo‘janova M. JDPI, Tarix fakulteti o‘qituvchisi

Tahririyat a'zolari:

- 1. Sagdullaev A.S. – tarix fanlari doktori, Akademik,**
- 2. Ahmedshina F.A. – tarix fanlari doktori, professor,**
- 3. Shodmonova S.B. – tarix fanlari doktori, professor,**
- 4. Ochilova B.M. – falsafa fanlari doktori, professor,**
- 5. Choriev S. – falsafa fanlari doktori, professor,**
- 6. Tulenova G. J. – falsafa fanlari doktori, professor,**
- 7. Pardaev M.H. – tarix fanlari doktori, dosent,**
- 8. G‘oyibov B.S. – tarix fanlari doktori (DSc), dosent,**
- 9. Yarmatov R. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dosent,**
- 10. Saidqosimov A.I. – f.f.b. fan doktori (DSc), dosent,**
- 11. Amanullaev A. – f.f.b. fan doktori (PhD), dosent,**
- 12. Toshboev F.E. – tarix fanlari bo‘yicha fan doktori (PhD), dosent,**
- 13. Mirkomilov B. – tarix fanlari nomzodi, dosent,**
- 14. Saidov M. – falsafa fanlari nomzodi, dosent,**
- 15. G‘ofurov J. – tarix fanlari bo‘yicha fan doktori (PhD), dosent,**
- 16. Hoshimxonov M.X. – f.f.b. fan doktori (DSc), dosent**
- 17. Valiev A.X. – katta o‘qituvchi,**
- 18. Majidov A.S. – katta o‘qituvchi,**
- 19. Karimova N. – o‘qituvchi,**

Тарих ва Жамият илмий журнали

YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOIY ADOLAT VA IJTIMOIY ISLOHOTLARNI AMALGA OSHIRISHDA INNOVATSION MEXANIZMLARNING AHAMIYATI

Alisher Ibragimov –tadqiqotchi,
Jizzax davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Mazkur maqolada mamlakatimizda ijtimoiy sohadagi islohotlarning olib borilishi, inson manfaatlaring ta'minlanishi, uning davlat va jamiyat qurilishidagi ahamiyati, milliy yuksalish tamoyillari aks etgan.

Аннотация: В статье отражены осуществление реформ в социальной сфере в нашей стране, защита интересов человека, его роль в построении государства и общества, принципы национального роста.

Annotation: This article reflects the implementation of reforms in the social sphere in our country, ensuring human interests, its importance in building the state and society, the principles of national progress.

Kalit so‘zlar: Milliy yuksalish, inson, demokratiya, huquqiy davlat, fuqarolik jamiyat, inson manfaati, erkinlik, farovonlik, ijtimoiy qadriyatlar, iqtisodiyot, ma’naviyat, taraqqiyot.

Ключевые слова: национальный подъем, человек, демократия, верховенство закона, гражданское общество, интересы человека, свобода, процветание, социальные ценности, экономика, духовность, развитие.

Key words: National progress, human, democracy, rule of law, civil society, human interests, freedom, prosperity, social values, economy, spirituality, development.

Yangi O'zbekistonda milliy yuksalish sharoitida fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo'lida muhim dasturiy chora-tadbirlar olib borilib, muhim jahoniy ahamiyatga molik yutuqlar qo'lga kiritilmoqda. Shu maqsadlar yo'lida inson manfaatlari, erkinligi va farovonligini ta'minlash kabi ijtimoiy qadriyatlarning muhim tamoyillari aniq va ravshan belgilab olingan. Mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy siyosatning muhim yo'nalichlari avvalambor aholini rozi qilish, ularning hayotiy muhim muammolarini yechib borish evaziga turmush tarzini tubdan yaxshilashga qaratilmoqda. Bu boradagi ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan muhim dasturlar ta'lim, sog'liqni saqlash, mehnat bandligi, uy-joy va kommunal xizmatlar kabi aholi turmush tarzini yaxshilashga xizmat qiladigan sohalarda muhim amaliy xususiyatga ega bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: "Biz pandemiya boshlangan ilk kunlarda bu qiyinchiliklardan yanada toblanib, kuchli va qudratli bo'lib chiqishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ygan edik. Yaratganning inoyati, el-yurtimizning ahilligi va fidokorona mehnati bilan bu mashaqqatli sinovlarni

Тарих ва Жамият илмий журнали

mardona yengib o‘tmoqdamiz. Mamlakatimizda olib borilayotgan jadal va keng ko‘lamli islohotlar yurtimizda yangi davrni – yangi O‘zbekiston davrini boshlab berdi. Bugun yurtimizda tarixan qisqa fursatda butunlay yangicha siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-ma’rifiy va madaniy muhit paydo bo‘ldi, deb aytishga barcha asoslarimiz bor”¹, deb ta’kidlagan.

Milliy yuksalish bosqichida yurtimizda huquqiy demokratik davlat, fuqarolik jamiyat, erkin tadbirkorlikka asoslangan iqtisodiyotni qurish, xalqimiz uchun obod turmush va farovon hayot barpo etish, xalqaro maydonda munosib o‘rinni egallashda yuksak istiqbolga asoslangan taraqqiyotga oid g‘oyalarni mustahkam zamin bo‘lib kelmoqda. Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan xalqchil islohotlar Vatanimiz taraqqiyotining tarixiy, ma’naviy, ijtimoiy va siyosiy shart-sharoitlari, istiqbolli dasturlarning mavjudligi, xalqimizning buniyodkorlik salohiyatini ro‘yobga chiqishi kabi muhim mezonlar bilan o‘ziga xos ahamiyatli jarayon sifatida amaliy tus olmoqda.

Jamiyatda inson huquqlari, manfaatlari va faravonligini ta’minalash, hayotiy ehtiyojlarini ro‘yobga chiqarishning asosiy jihatlari Konstitusiya va mamlakatimizda qabul qilingan meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilab qo‘yilgan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 14-moddasida “Davlat o‘z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko‘zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshiradi”² deb ko‘rsatilgan. Shuningdek, O‘zbekiston davlati ijtimoiy siyosatida inson manfaatlari ustivorligi va hayotiy faravonligini ta’minalashning siyosiy va huquqiy kafolatlari aholini ijtimoiy himoya qilish borasida qabul qilingan qonunlar, qonun osti hujjatlarida o‘z ifodasini topgan.

O‘zbekistonda faol demokratik yangilanishlar, jamiyatning barcha sohalarida jadal islohotlar va mamlakatni tubdan modernizatsiya qilish davom etmoqda. Bunda jamiyatimizda barqaror taraqqiyot, ijtimoiy-siyosiy hayotni, davlat va jamiyat boshqaruvini yanada isloh etish, xususan, Konstitusiyada aniq va ravshan belgilab berilgan inson manfaatlari, erkinligi, ehtiyojlari va farovonligini to‘la ta’minalash, har bir insonni jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlash, uning oliy qadriyat sifatidagi maqomini yuksaltirish hamda to‘laqonli hayot kechirishi uchun shart-sharoitlar yaratib berish chuqur ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda milliy yuksalish va inson faravonligini ta’minalash jarayonlari nufuzli xorijiy institutlar tomonidan chuqur e’tirof etimoqda. Amerika Qo‘shma Shtatlarining “J.P.Morgan” investitsiya banki tomonidan e’lon qilingan tahliliy hisobotda e’tirof etilishicha, “O‘zbekiston so‘nggi 20 yil ichida O‘rta Osiyo,

¹ Ватанимиз мустақиллиги – биз учун куч-кудрат ва илҳом манбаи, тараққиёт ва фаровонлик асоси. Президент Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси давлат мустақиллигининг 30 йиллик байрамига бағишиланган маросимдаги нутқи. 31.08.2021. www.prezident.uz. ташриф.15.09.2021

² Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. 14-модда.

Тарих ва Жамият илмий журнали

Sharqiy Yevropa, Yaqin Sharq va Afrika (CEEMEA) mamlakatlari orasida yuqori va barqaror o'sish sur'atiga erisha olgan sanoqli mamlakatlardan biri bo'lgani e'tirof etilgan. Xususan, respublika iqtisodiyoti so'nggi o'n yil mobaynida yiliga o'rtacha 6 foizga o'sib borgan va bu bilan ko'pgina mamlakatlarning havasiga sazovor bo'lgan. Ulkan islohotlar rejasi esa kelgusida so'nggi yillardagidek yoki undan ham yuqori iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi”³.

Milliy yuksalish davrida mamlakatimizning har tomonlama taraqqiyot darajalariga erishganligi va bu ko'rsatkichlar aholining faravonligiga real ijobjiy ta'sir etmoqda. 2017-2020 yillarda O'zbekistonda iqtisodiy o'sishining yuqori darajasi qayd etilganini e'tirof etish, joiz. Mamlakatimizda bu boradagi ko'rsatkich 18,3 foizni tashkil etib, yalpi ichki mahsulot 60 milliard dollarga yetdi. Jahon banki tomonidan tashkil etilgan “Biznesni yuritish” xalqaro reytingi tahliliga ko'ra, O'zbekiston besh yil mobaynida 141-o'rindan 69-o'ringa ko'tarilganligi qayd etildi.

Jamiyatimizda Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan “Inson o'zgarsa – butun jamiyatimiz o'zgaradi” g'oyaviy tamoyili asosida ijtimoiy hayotda insonning o'rni va nufuzini oshirish jarayonlari yuksalib bormoqda. Bu jarayonda ijtimoiy sohaning muhim tarmog'i bo'lgan ta'lim sohasini rivojlantirish Uchinchi renessansning muhim poydevori ekanligi e'tirof etildi. Ta'lim sohasini rivojlantirish borasidagi raqamlarga e'tibor bersak, maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrov darajasini 62 foizga yetib, nodavlat ta'lim maskanlari 200 tadan oshib ketdi. Bitiruvchilarni oliy ta'limga qamrab olish darajasi 2016 yilda 9 foiz bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda u 28 foizga yetdi. Istiqbolda ushbu qamrov ko'rsatkichini 60 foizga yetkazish mo'ljallangan.

O'zbekiston Respublikasida tarkibiy islohotlar asosiy yo'nalishlarida⁴ ijtimoiy sohaning quyidagi tizimlarini innovatsion rivojlantirish borasida “Yo'l xaritasi” vazifalari yo'nalishlari ishlab chiqilgan.

Unda quyidagi yo'nalishlarda tegishli tizimlashgan maqsadlarni amalga oshirish nazarda tutilgan:

- ijtimoiy kafolatlar tizimini takomillashtirish bo'yicha «Yo'l xaritasi»da ijtimoiy kafolatlar registrni joriy etish, ijtimoiy nafaqa tizimlarini jamlash, ijtimoiy himoya tizimlari holati va darajasini aniqlash;

- mehnat bozorini isloh qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarda ish haqi fondini isloh qilish, vaqtincha ishsizlikni sug'urtalash, ishlovchilarni ijtimoiy sug'urtalashni xalqaro normalarga moslashtirish;

³ Ўзбекистоннинг куёш каби қўтирилиши. “J.P.Morgan” хисоботи. <https://xs.uz>.

⁴ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 январдаги «Иқтисодиётни янада ривожлантириш ва иқтисодий сиёсат самарадорлигини оширишининг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида»ги Фармони. 2019 йил 8 январь. ПФ-5614-сон. www.lex.uz.ташриф.07.10.2021

Тарих ва Жамият илмий журнали

- sog‘lijni saqlashni yanada rivojlantirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”da sohada xususiy sektorni kengaytirish, aholini arzon dori-darmonlar bilan ta’minlash, majburiy tibbiy sug‘urta mexanizmlarini joriy etish;

- ta’limni rivojlantirish milliy strategiyasini ishlab chiqishda zamonaviy ta’lim tizimini yaratish, PISA⁵, TIMSS⁶ va PIRLS⁷ kabi xalqaro baholash tizimlari bilan ishlash, hukumat, universitetlar va ish beruvchilar o‘rtasida muloqotni kengaytirish.

Bugungi kunda ijtimoiy siyosatdagi tubdan yangilanishlar, iqtisodiy sohadagi o‘zgarishlar, shahar va qishloklarimizning obodonlashuvi va ko‘rkamlashuvi, xalqimizning turmush tarzi farovonlashib, hayot kechirish darajasi yuqorilashib borishi ushbu tamoyillarning naqadar to‘g‘ri ekanligini isbotlamoqda. Prezidentimizning ta’kidlashicha, “Biz bundan buyon ham aholimizning daromadi va turmush darajasini muntazam yaxshilab borishga jiddiy ahamiyat qaratamiz. Yurtimizda ijtimoiy muammolarni hal etishning o‘ziga xos yangi tizimi yaratilganidan barchangiz yaxshi xabardorsiz. “Temir daftari”, “ayollar daftari”, “yoshlar daftari”, “mehr daftari”, “mahallabay” ishslash usullari aynan shu maqsadda joriy etilmoqda. Islohotlar doirasida qabul qilingan yirik dasturlar jamiyatimizda ijtimoiy muhitni yaxshilash va aholi farovonligini oshirishga xizmat qilmoqda”⁸.

Mamlakatimiz ijtimoiy siyosatida inson turmush tarzini yanada farovonlashtirish, davlat va jamiyat qurilishini isloh etish va iqtisodiyotni to‘liq liberallashtirishga qaratilgan tub o‘zgarishlarni amalga oshirish jarayonlari milliy yuksalish tamoyillarini ro‘yobga chiqarishga zamin hozirlamoqda. A.Saitqosimovning ta’kidlashicha, “Ijtimoiy adolat insonlar farovonligi ta’minlash, huquqlari va qadr-qimmatini ulug‘lash, insonni har tomonlama yuksaltirish bilan bog‘liq muhim sotsial voqelik hisoblanadi. Ijtimoiy adolat asrlar davomida rivojlanib va takomillashib kelayotgan, insoniyat uchun eng muhim qadriyatlarni mujassamlashtirgan g‘oya hisoblanadi. Bugungi kunga kelib, fuqarolik jamiyat qurilishida ijtimoiy adolat fenomeni o‘zining mukammal ko‘rinishiga ega bo‘ldi”⁹.

Xalqimizning yillar davomida orzu qilgan huquqlarini to‘laqonli ta’minlanishi, manfaat va ehtiyojlarini ro‘yobga chiqishi jamiyat ijtimoiy barqarorligi va taraqqiyot taomilini naqadar yuksak ekanligidan dalolat beradi. Shu bilan birga, ushbu jarayonda davlatimiz o‘zining zamonaviy demokratik taraqqiyoti jarayonida jahon hamjamiyati va xalqaro tuzilmalardagi ishtiroki umuminsoniy tamoyillarga mos

⁵ Programme for International Student Assessment. <https://ru.wikipedia.org>. ташриф .27.09.2021

⁶ Trends in Mathematics and Science Study. <https://ru.wikipedia.org>. ташриф.18.10.2021

⁷ Progress in International Reading Literacy Study. <https://ru.wikipedia.org>.

⁸ Ватанимиз мустақиллиги – биз учун куч-кудрат ва илҳом манбаи, тараққиёт ва фаровонлик асоси. Президент Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси давлат мустақиллигининг 30 йиллик байрамига бағишиланган маросимдаги нутқи. 31.08.2021. www.prezident.uz.12.09.2021

⁹ Сайтқосимов А. Хукукий маданият ва хукукий тарбия асослари. -Тошкент, “LESSON-PRESS”, 2021. –Б. 71

Тарих ва Жамият илмий журнали

keladigan insonparvar jamiyat qurish faoliyatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘ldi.

Olimlarning ta’kidlashicha, “Islohotlar markazida insonning oliv qadriyat sifatida baholanishi mamlakatimiz strategik vazifalariga hamohangdir. Xususan, bu boradagi barcha o‘zgarishlarning mazmun - mohiyati ham inson va uning qadr-qimmatini ko‘tarish bilan bog‘liq. Xolbuki, ushbu qadriyatlar asosida shakllangan jamiyat, mohiyatiga ko‘ra, xalqaro talablarga, umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi tamoyillariga mos keladi, ularning milliy darajada namoyon bo‘lishi uchun imkon yaratadi. Shu bilan birga, u mamlakatimizda yashayotgan barcha millat va elat, har bir shaxs, turli qatlam vakillarining umumiy maqsad-muddaolarini ifodalaydi”¹⁰.

O‘zbekistonda ijtimoiy islohotlarni amalga oshirishda innovatsion omillarni takomillashtirish borasidagi ishlarni tashkil etishda quyidagi chora-tadbirlarni nazarda tutish maqsadga muvofiq:

- ijtimoiy siyosatning muhim yo‘nalishlari ta’lim, sog‘liqni saqlash, mehnat bandligi, uy-joy va kommunal xizmatlar kabi aholi turmush tarzini yaxshilashga xizmat qiladigan sohalarda innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish;

- inson manfaatlari, erkinligi, ehtiyojlari va farovonligini to‘la ta’minlash, har bir insonni jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlash, uning oliv qadriyat sifatidagi maqomini yuksaltirishda davlat boshqaruvi organlarining mas’uliyatini yanada oshirish;

- inson manfaatlari ustivorligi va hayotiy faravonligini ta’minlashning siyosiy va huquqiy kafolatlari aholini ijtimoiy himoya qilish borasida qabul qilingan qonunlar, qonun osti hujjatlarining amaliyotda ijrosini to‘laqonli ta’minlash;

- jamiyat hayotini tubdan isloh qilish, jahonda pandemiya va moliyaviy-iqtisodiy inqiroz alomatlari bo‘lib turganiga qaramay, iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy hayotni erkinlashtirishda fuqarolik jamiyatni institutlari rolini oshirish;

- ijtimoiy islohotlarda inson va uning qadr-qimmatini ko‘tarishda xalqaro talablarga, umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi tamoyillariga uyg‘unlashtirish, ularning milliy darajada namoyon bo‘lishi borasida chora-tadbirlar ishlab chiqish.

Xulosa qilib aytganda, mazkur islohotlar natijasida mamlakatimizda ijtimoiy, siyosiy sohalarda keskin o‘zgarishlar va taraqqiyot kuzatila boshlandi. Mazkur taraqqiyot taomili faqat inson manfaatlari va faravonligini ta’minlash va ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy ehtiyojlarni ro‘yobga chiqarishdir. Jamiyatda shaxsning ijtimoiy manfaatlarini to‘liq ta’minlanishi hayot-mamot vazifaga aylanib, inson qadri va ijtimoiy mavqeini yuqori darajada ta’minlash muhim insonparvarlik

¹⁰ К.Назаров, М.Куронов ва бошқ. Бу мукаддас Ваатанда азиздир инсон. Т, “Ўзбекистон”, 2010. –Б.4.

Тарих ва Жамият илмий журнали

tamoyili hisoblanadi. Ijtimoiy siyosatning insonga beradigan nafi va ko‘magi muhim xususiyat bo‘lib, shaxsning jamiyatdagi maqomini yuksaltiradi.

ADABIYOTLAR:

1. Vatanimiz mustaqilligi – biz uchun kuch-qudrat va ilhom manbai, taraqqiyot va farovonlik asosi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 30 yillik bayramiga bag‘ishlangan marosimdagи nutqi. 31.08.2021. www.prezident.uz.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. 14-modda.
3. O‘zbekistonning quyosh kabi ko‘tarilishi. “J.P.Morgan” hisoboti. <https://xs.uz>
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 yanvardagi «Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni. 2019 yil 8 yanvar. PF-5614-son. www.lex.uz
5. Programme for International Student Assessment. <https://ru.wikipedia.org>.
6. Trends in Mathematics and Science Study. <https://ru.wikipedia.org>.
7. Progress in International Reading Literacy Study. <https://ru.wikipedia.org>.
8. Saitqosimov A. Huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya asoslari. -Toshkent, “LESSON-PRESS”, 2021. –B. 71
9. Q.Nazarov, M.Quronov va boshq. Bu muqaddas Vaatanda azizdir inson. T, “O‘zbekiston”, 2010. –B.4.